

## INTERNET MULOQOTIGA DOIR MULOHAZALAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7689650>



ELSEVIER

**Miralimova Shahzoda Xasanboyevna**

Andijon davlat chet tillar instituti magistranti



**Abstract:** Ushbu maqola –IL402104213 raqamli O'zbek tilida elektron lingvistik ensiklopedik lug'at ishlab chiqish innovatsion davlat ilmiy – texnika dasturi asosida tayyorlangan. Uning amaliy ahamiyati shundaki, maqolada internet muloqotiga doir mulohazalar haqida material jamlangan va tahlil qilingan. Ilmiy maqola natijalaridan Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida maxsus kurs o'qitishda, qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

**Keywords:** Virtual muloqot, pretsedent matn, pretsedent birliklar, pretsedent jumla, ijtimoiy tarmoqlar, lingvistik xususiyatlar, mediamatn ,verbal, audio va vizual kodlar, elektron manbalar ,uzatish kanali

Received: 22-02-2023

Accepted: 22-02-2023

Published: 22-02-2023

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



**Abstract:** Данная статья подготовлена на основе инновационной государственной научно-технической программы по разработке электронного лингвистического энциклопедического словаря на узбекском языке под номером ИЛ402104213. Ее практическая значимость заключается в том, что в статье обобщается и анализируется материал о комментариях в интернет-общении. Результаты научной статьи могут быть использованы при преподавании спецкурса на филологических факультетах высших учебных заведений, а также при создании учебных пособий

**Keywords:** Виртуальная коммуникация, прецедентный текст, прецедентные единицы, прецедентное предложение, социальные сети, языковые особенности, медиатекст, вербальный, звуковой и визуальный коды, электронные ресурсы, канал передачи

Received: 22-02-2023

Accepted: 22-02-2023

Published: 22-02-2023

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



**Abstract:** This article was prepared on the basis of an innovative state scientific and technical program for the development of an electronic linguistic encyclopedic dictionary in the Uzbek language under the number IL402104213. Its practical significance lies in the fact that the article summarizes and analyzes the material on comments in Internet communication. The results of a scientific article can be used in teaching a special course at the philological faculties of higher educational institutions, as well as in creating teaching aids.

**Keywords:** Virtual communication, case text, case units, case sentence, social networks, language features, media text, verbal, sound and visual codes, electronic resources, transmission channel

Received: 22-02-2023

Accepted: 22-02-2023

Published: 22-02-2023

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Internet muloqotining o'ta keng ko'lamli imkoniyatlari va o'ziga xos sotsiopsixolingvistik omillari tillarning funksional jihatlarini yangi o'zanga burib yubordi. Virtual muloqotning anonimlik tabiati va bilvosita munosabatlarga asoslanganligi uning real muloqotga nisbatan ancha erkin va spontanlik jihatini kuchaytirdi. Ya'ni kommunikanlar o'zaro yuzma-yuz munosabatdagi ma'lum bir muloqot xulqi me'yorlaridagi cheklovlar, nutqiy etiket talablaridan holi vaziyatda psixologik to'siqlardan xalos bo'ladilar va natijada birmuncha erkin muloqotga

kirishadilar. Bu esa til birliklaridan istagancha foydalanish, so'z o'yinlari, qochirim va kinoya usullarini keng qo'llash imkonini beradi.

T.V.Marchenkoning fikriga ko'ra, elektron manbalar va uzatish kanalining texnik imkoniyatlari vositachiligidagi mediamatn verbal, audio va vizual kodlarning yaqinlashishi potensialini ochib beruvchi polimodal hodisa sifatida ishlaydi. Integrativlik va polikod Internet muloqotining intertekstualligini belgilaydi<sup>218</sup> va bizningcha, aynan, mana shu holat pretsedentlik hodisasiga keng yo'l ochadi.

Pretsedentlik murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lib, uni o'rganishga kompleks yondashuvni talab qiladi. "pretsedent matn" atamasi birinchi marta Yu.N.Karaulov tomonidan qo'llangan. Olim pretsedent matnlar masalasini lisoniy shaxs nazariyasi doirasida ko'rib chiqdi, ulardan foydalanishni birinchi navbatda kommunikativ faoliyat bilan izohlaydi.<sup>219</sup>

Pretsedent birliklar bilan tanishuv lisoniy shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida sodir bo'ladi. Olimning ta'kidlashicha, pretsedent matnlar mavjud bo'lishining asosiy jihatlaridan biri ularning semiotikligi bo'lib, parcha keltirish, havola berish, eslatish orqali asl matnga ishora qilinadi va shu tariqa muloqot jarayoniga yo butun matn, yoki nutqiy vaziyat bilan mazmunan aloqador alohida parchalar olib kiriladi; bu holda butun matn yoki uning muhim qismi belgilash birligi sifatida yangi talqinda aktuallashadi.<sup>220</sup>

Yu. N. Karaulovga ko'ra, pretsedent matnlarning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- 1) emotsional va kognitiv jihatdan ahamiyatli;
- 2) mavjudlik doirasi keng, taniqli;
- 3) takroriy yangilanish (takroriylik);
- 4) qayta talqin qilish imkoniyati (og'zaki so'zlashuvdan tashqari, san'atning boshqa turlarida ham gavdalantirish);
- 5) xronotopik belgilash (pretsedent matnlar ma'lum bir davr va madaniyatga tegishli);
- 6) mavjudlikning semiotik usuli.<sup>221</sup>

Sanab o'tilgan xususiyatlar pretsedent birliklarni boshqa turdagi matnlardan aniq ajratish imkonini beradi. D.Xudoyberganova o'zbek tilshunosligida birinchilardan bo'lib pretsedent birliklarni ilmiy muhohasaga olib kirdi va shaxs nomlari, barqaror so'z birikmalari, jumlar hamda matnlar pretsedent birliklar

<sup>218</sup>Марченко Т.В. Прецедентность в дискурсах медиапространства: к проблеме исследования вербальных и невербальных феноменов // Гуманитарные и юридические исследования СКФУ, Ставрополь, № 2, 2021. – С. 143-150

<sup>219</sup>Карaulov Ю. Русский язык и языковая личность. М., 2010. - С.215.

<sup>220</sup>Карaulov Ю. Русский язык и языковая личность. М., 2010. - С.216.

<sup>221</sup>Карaulov Ю. Русский язык и языковая личность. – М., 2010. – С.216.

sifatida qayd etilishini ta'kidlaydi.<sup>222</sup> Kuzatishlarimiz asosida shuni aytib o'tmoqchimizki, nafaqat shaxs nomlari, balki umuman, onomastik nomlarning hamma turlari ham pretsedent birliklarga aylanishi mumkin.

Qulay kommunikativ makon o'laroq, Internet muloqoti yangi-yangi nutqiy ifodalarning pretsedentlashuvi, ya'ni tez fursatda til tashuvchilari orasida ommalashib, semiotik siljish orqali turli ma'no variantlari shakllanishiga hissa qo'shmoqda.

Java taxallusini qo'llagan havaskor qo'shiqchi "Dunyo sening tog'angmas" nomli kichik hajmli klip-qo'shig'ini ijtimoiy tarmoqning "YouTube" kanaliga joyladi. Mediamatnning noan'anaviy, g'ayritabiiy dizayni, ya'ni ijrochining yuzko'zini doka bilan o'rab olgan holda kuylashi favqulodda tomoshabinlar e'tiborini tortdi va u qadar mazmunli bo'lmagan qo'shiq matnining, xususan, "Dunyo sening tog'angmas" jumlasining tez ommalashuviga sabab bo'ldi.

"Feysbuk" foydalanuvchilaridan birining yozishicha, ijroning kuzatuvchilari uch haftada 5 million kishidan ortgan. "Sizlarni bilmadimu, ertadan bolalarimga nasihatni huddi shunga o'xshash qo'shiq bilan boshlab ko'rmoqchiman! YO ostidan, yo ustidan. Nasihatimni olishsa o'zlariga, olishmasa yutubga qo'yvoraman, oqibatda mashhur bo'lganim qoladi, 😊😊😊😊"- deya kinoya qiladi u. Retsipiyentlar ushbu postga turlicha talqindagi fikrlarini yozib qoldirganlar:

- Nonvoy seni tog'angmas (dunyo so'ziga taqlidan)

- Dunyo sani ammanangmas(tog'a so'ziga taqlidan)

- Avtohalokatdan keyin aytilganmi bu qo'shiq? (ijrochining yuziga doka bog'langaniga ishora)

Boshqa bir foydalanuvchi "Tag'o taym" nomi bilan qatnashuvchi blogerning sahifasiga shunday tabrik yo'llagan: "Bugun ishongan tog'i(**tog'a**)mizning tug'ilgan kuni. Chin qalbdan tabriklayman. Bugun ertalabdan boshlab O'sha - mashhurlashayotgan qo'shiqdagi "**Dunyo seni tog'angmas**" degan satrlarni "Tog'am mening dunyom"dir deya xirgoyi qilayapman." ("Feysbuk"dan) Bunda so'z o'yini tarzida gap bo'laklari o'rni almashtirilgan: "Dunyo sening tog'angmas" - "Tog'am mening dunyom"dir.

"Dunyo sening tog'angmas" jumlasini shu qadar ommalashdiki, hatto ijtimoiy tarmoqlardagi reklama matnlarida yoki bloglarda ham faol qo'llana boshladi.

Tilni o'rganish uchun "Dunyo sizni tog'angiz" bo'lishi shart emas, shunchaki zamonaviy tarzda, ishonchli va eng asosiysi yangi innovatsion Guliston ingliz tili markazida o'rganing! 🙌(Reklama matnidan)

"Telegram" kanali foydalanuvchisi esa "Dunyo sening tog'angmas"jumlasidan ekspressiv maqsadda, ya'ni ko'tarilayotgan masalaga nisbatan sub'ektiv munosabatini kuchaytirish maqsadida foydalangan: "Institut seni tog'angmas yoki amma-xolangmas. Endi bizda ham xuddi Amerikadek 4 yillik o'qishni 10 yilda bitirishing

<sup>222</sup> Худойберганава Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. Т.: Фан, 2013. – Б.87

*mumkin. Kerakli kreditni (kredit-modul tizimi nazarda tutilmoqda – izoh bizniki) yig'a olmadingmi, marhamat pulini to'lab qo'y va boshqatdan o'qi! Tanlov o'zingni qo'lingda."*  
(Baxtiyor Mirzo)

Bir abituriyent esa test sinovlari javob varaqasiga *"Test yechish oson emas"* degan mazmunda *"Dunyo sening tog'angmas"* deb yozib, imzo qo'yib topshirgan.

Ushbu faktik materiallar pretsedent birliklarning yuqorida keltirib o'tilgan xususiyatlari mediamuloqot orqali yanada qabariq holda namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, jumlaning pretsedent birlikka aylanishida noverbal omillar muhim ahamiyatga ega.

Bloger Rahimjon Rahmat *"Oshinlarim"* turkumida postlar qo'yib boradi:

*Maqsadni katta qo'yish kerak. Oshinlarimdan birining beshta o'g'li bor, eng kattasi bu yil harbiy bo'laman deb o'qishga topshiribdi. Hamma o'g'limni o'qitaman, deydi oshinim.*

*Oshin* shu nomdagi mashhur yapon seriali qahramonining ismi bo'lib, bloger metafora usulidan foydalanib, fermer xo'jaligidagi mehnatkash ayollarni *"Oshinim"*, *"Oshinlarim"* deya nomlaydi.

Retsipiyentlar *Oshin* so'ziga e'tibor qaratadilar.

- *Oshinlarim nima degani?*

- *Oshin kunlik mardikor ayol. Yaponlarning Oshin serialini ko'ring...*

- *"oshna", "dost" so'zlarini shevaga xos shakli bolsa kerak. Bu so'zni Dima Qayum postida ham uchratgandim-da. Nima u deb so'rasam. Ba'zi birovlar yapon qahramoni Oshin deyishdi.*

- *bo'sqalar to'g'ri aytibdi. Oshindek mehnatka's ayollarni shunday deyidilar :)*

- *unda nega oshinlarim deb ishlatishyabdi?*

- *mardikor ayollarni Dang'ara tomonlarda Oshin deyishadi, mardikor deyilsa xafa bo'lmasliklari uchun...*

- *tushunarli. Rahmat!*

- *Oshinlarim - dalamizda yollanma shaklda ishlaydigan ayollar. Yapon serialidagi Oshinning ismidan olingan.*

- *«Oshin»da kambag'al dehqon xonadonida tug'ilgan yapon qizining o'z otasi tomonidan uy xizmatiga sotilgan paytidan boshlab, oilasining boylikka va muvaffaqiyatga erishishga qadar bo'lgan hayoti hamda qiyinchiliklari tasvirlanadi.*

2022 yilning eng mashhur sud jarayoni yakuniga yetgach va unda Jonni Depp g'olib bo'lganini bilgach internet tarmoqlarida minglab memlar joylandi. Ember Xerdning kasbiy faoliyati yakuniga yetganligi, uning yolg'onlari butun dunyo ko'z o'ngida fosh bo'lganligi borasida qizg'in suhbatlar avj oldi. Ushbu surat ijtimoiy tarmoqlardan biriga joylanadi va uning ortidan ko'plab izohlar qoldiriladi (*"Twitter"* dan):

- *She is so sickening, sitting up there trying to look innocent, I'm so glad the jurors see right through her. (U kasal, o'zini beaybday*

tutishga harakat qilib o'tirishichi, hakamlar uning asl yuzini ko'ra olganidan xursandman).

- *Justice is seved (Adolat qaror topdi).*

- *It was SO satisfying seeing the look on her face when the verdict was announced (Hukm o'qilayotganda uning yuzini ko'rib turish biram yoqimli bo'ldi).*

- *This should be a lesson to all the LIARS!*

(Bu sud barcha yolg'onchilarga dars bo'lishi kerak!)

Yuqoridagi fikr-mulohazalar va tahlillar asosida internet tarmoqlarida foydalanilayotgan pretsedent birliklarning turlarini quyidagi jadvalda belgiladik.

T/r	Manbai	Misollar
1. Pretsedent nomlar		
1.1.	Real tarixiy yoki zamondoshlar nomi	<i>Kusto hayratda</i> <i>Hojiboychasiga kulishamiz</i>
1.2.	Joy nomlari	<i>Susambil</i>
1.3.	Badiiy, publitsistik asarlar nomi	<i>"Choliqushi" romani, "Lolaqizg'aldoq" she'ri</i>
1.4.	Kino, spektakl, raqs kabi san'atari nomi	<i>"Titanik", "Jaydari kelin", "Otello", "Andijon polkasi"</i>
2. Pretsedent jumlar		
2.1.	Badiiy asarlar, qo'shiqlarga oid	<i>Siz o'shamu?</i> <i>Dunyo sening tog'angmas</i>
2.2.	Xalq og'zaki ijodiga oid	<i>Ikki yamlab, bir yutardim</i>
2.3.	Kinofilm, spektakllarga oid	<i>Abdullajon, shakarsan, shakar.</i> <i>Na bo'ldi, nigoro, biza aslo qaramaysiz?</i>
3. Pretsedent matnlar		
3	Mashhur badiiy asarlar	<i>"Qo'rqma", "Shaytanat", "Puankare"</i>
3.1.	Latifalar	<i>«Otello» spektakli tamom bo'lgandan keyin Afandiniig i juda ta'sirlanib:</i> <i>- Avtor sahna chiqsin!-deb qichqirdi. Shunda Afandi g tirsagidan tortib:</i> <i>- O'tir joyingga, avtor o'tgan yili o'lgan,- dedi.))</i>
3.2.	Qo'shiq	<i>Unutmoq osonmas bizlarni</i>
3.3.	Reklama	- <i>Hech narsani unutmadikmi?</i> - <i>Unutdik, qahva ichishni.</i> - <i>Kel, unda yana bir kun qola qolaylik.</i>
4. Pretsedent vaziyatlar		

4.1.	Badiiy filmdan	"Abdullajon" filmidagi poliz ekinlarining kattaligi, larning ketmoni uchishi, yomg'ir yog'ishikabilar
------	----------------	---

Internet muloqoti vaqt (sinxron/asinxron) va makon parametrlarini erkin tanlash, foto, audio va video xabarlar yuborish imkoniyatlari mavjudligi, xabar (SMS) almashish tezligi, bir vaqtning o'zida bir nechta ishtirokchilar bilan o'zaro muloqot qilish, paralingvistik xatti-harakatlar o'rniga o'rindosh vositalar – smaylik, emodzi va emotikonlar qo'llanilishi kabi qator afzalliklarga ega.

Sotsiolekt – milliy tilning u yoki bu quyi tizimi doirasidagi har qanday ijtimoiy guruhga - kasbiy, tabaqaga, yoshga va hokazolarga xos bo'lgan lingvistik xususiyatlar yig'indisini anglatib, mohiyatan "sotsial dialekt" ("ijtimoiy dialekt") iborasining bir so'zga qisqarishidir.

Internet muloqoti tizimida ommaviy so'zlashuv muloqotiga xizmat qiladigan *forum, blogosfera, guruh* shakllarini format deb belgiladik.

Forum muloqot formati, kommunikativ maydon sifatida nisbatan barqaror ishtirokchilar tarkibiga ega tematik suhbatlar shakli hisoblanadi. Forumda muayyan sotsialektga oid til vositalarini tanlash va mavzuga oid oid savollar tashlash markaziy o'rinni egallaydi.

*Forum, blogosfera, tematik guruh* formatlari uchun **polilog** nutqiy shakl xarakterli jihat hisoblanadi. **Polilog** (yun.poli – ko'p, logos – so'z) ko'pchilikning, bir nechta odamning suhbat. Polilogning o'ziga xos xususiyatlari: kamida uchta ishtirokchi qatnashadi, nutqiy vaziyatga doir mavzuda muloqot qiladilar. Bu o'rinda so'zlovchi-tinglovchilar roli bir shaxsdan boshqasiga almashinib turishi bilan xarakterlanadi, aks holda so'zlashuv monologga aylanib qoladi.

Norasmiy so'zlashuv muloqotining lingvistik xususiyatlari og'zaki so'zlashuv nutqi asosida shakllandi va quyidagi me'yordan chetlashishlar kuzatiladi: grafik xatolar, belgi yoki harflarning noto'g'ri qo'llanishi ko'p uchraydi *jargon, argo, vulgarizm, varvarizm, kasbiy atamalar* kabi chegaralangan leksik vositalardan keng foydalaniladi; mavzu doirasida suhbatdoshlar uchun tushunarli bo'ladigan okkazonalizmlar shakllanadi, so'z o'yini usuli kuzatiladi.

Internet fenomeni doirasida norasmiy ommaviy muloqotning o'ziga xos sotsiopsixolingvistik jihatlari shakllanib bormoqda. Xususan, "Feysbuk"da *so'z o'yini, kinoya, qochirim, yumor, sarkazm, metafora* kabi qator stilistik vositalar keng qo'llaniladi. "Telegram" kanalida asosan, kundalik-maishiy muloqot uchun qulay platforma sifatida oddiy so'zlashuv uslubi yetakchi mavqega ega. "V Kontakte" tarmog'i foydalanuvchilari nutqi zamonaviy tushunchalarga oid *neologizmlar, yoshlar nutqiga xos slenglar, varvarizmlarning* keng qo'llanishi bilan xarakterlanadi.

Muayyan til lug'at boyligining o'rganilmagan yoki umumtil boyligiga "kiritilmagan" sheva elementlarini ommalashtirish, "yuzaga chiqarish" imkoniyati

mavjudligini Internet muloqotining tilga ta'siri nuqtai nazaridan ijobiy jihatlaridan biri sifatida qayd etish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Марченко Т.В. Прецедентность в дискурсах медиапространства: к проблеме исследования вербальных и невербальных феноменов // Гуманитарные и юридические исследования СКФУ, Ставрополь, № 2, 2021. – С. 143-150 .
2. Караулов Ю. Русский язык и языковая личность. М., 2010. - С.215.
3. Худойбергана Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. Т.: Фан, 2013. – Б.87
4. Боярский К. Введение в компьютерную лингвистику. Санкт-Петербург, 2013.-С.4
5. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Т., 2011. -В.
6. Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XXIV. Компьютерная лингвистика. – М.: Прогресс, 1989 - С.10
7. Abduhamidova L. Komyuter lingvistikasining avtomatik tahrir yo'nalishi. BML-Toshkent, 2016.
8. Internet manbalari:  
<http://fomin.zivouz.com/index.php.topic=3899.0>  
<http://en.wikipedia.org>. Computational linguistics. Bond.uz.